

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI KAMBAG'ALLIKDAN CHIQARISH VA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH SOHASI UCHUN AJRATILAYOTGAN MOLIYAVIY PAKETLAR

Anvarbekov Ozodbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, moliya fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan aholini kambag'allikdan chiqarish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun bank va mikromoliya tashkilotlari yordamida ajratilayotgan imtiyozli kredit va qarzlarini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Bank sektori, davlat banklari, PQ-55, PQ-306, PQ-312, PQ-7, imtiyozli kredit, kichik biznes, tadbirkorlar.

So'nggi yillarda davlatimiz o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlardan biri bu aholining turmush darajasini oshirish hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, aholining turmush darajasini belgilovchi asosiy belgilardan biri bu uning daromadi hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish va aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda tadbirkorlarni faoliyatini kengaytirgan holda qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Buning uchun ishsiz aholiga bilim-ko'nikmasiga ko'ra bandlikka ko'maklashish markazi tomonidan bo'sh ish o'rinlari taqdim etilmogda. Agar aholida tadbirkorlikka ishtiyoq mavjud bo'lsa, mavjud imtiyozli kreditlar va subsidiyalar orqali tadbirkorlikka jalb qilinmogda. Jumladan, ishsiz aholini tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va har bir oila daromadini oshirish maqsadida 2022-yildan beri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 55-sonli qaroriga asosan "Har bir oila tadbirkor" davlat dasturi asosida o'z o'zini band qilgan jismoniy shaxslar uchun 33,0 million so'mgacha imtiyozli kreditlar davlat banklari tomonidan ajratila boshlandi. Ushbu kredit uchun resurs davlat mablag'ari tomonidan ta'minlanmogda. 2022- yilning o'zida ushbu dasturni moliyalashtirish uchun 10,0 trillion so'm pul mablag'i ajratildi.

2024-yilda aholini kambag'allikdan chiqarish borasidagi islohotlar ancha jadallashdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2024 yildagi 7-sonli qarori(PQ-7) asosida aholi bandligi ta'minlash borasida loyihalar ishlab chiqildi. Jumladan, ushbu qarorga asosan 2024-yilning o'zida 5 million aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ish bilan ta'minlash ko'rsatmasi berildi. Shuningdek, Markaziy bank boshqaruv raisi o'rinbosari A.A. Turdaliyev va tijorat banklari raislariga o'z o'zini band qilgan jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etgan holda bandligini ta'minlashi maqsadida, yangi moliyaviy xizmat joriy qilgan holda 2 million aholini biznesga jalb qilishi vazifasi yuklatildi. Buning natijasida ko'plab banklarda "Biznesga birinchi qadam" nomli moliyaviy xizmat ya'ni kredit turi paydo bo'ldi. Ushbu kredit foiz stavkasi bozordagi mikrocredit foizidan past foizlarda aholiga taklif qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-avgustda Qoraqalpog'istonda tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti davomida berilgan ma'lumotlarga ko'ra shu kungacha "Biznesga birinchi qadam" davlat dasturi asosida 115 ming aholiga 1 trillion so'mlik mikroqarzlar ajratilgan.

2024-yil "Yoshlar va biznesi qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlangandan so'ng 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yildi 306-sonli qarori(PQ-306) 2024-yilda amaliyotga keng targ'ib qilina boshlandi. Ushbu qarorga asosan davlat banklari faoliyat yuritayotganiga 1 yildan oshgan kichik biznes egalari 100 million so'mgacha garovsiz va 2 milliard so'mgacha garov bilan Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasiga +4% stavkada 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha kreditlar ajratila boshlandi. Ushbu davlat dasturini moliyalashtirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirilishi belgilandi. Ushbu dasturni asosiy belgilaridan biri tadbirkor ushbu imtiyozli kreditdan foydalanishi uchun qo'shimcha ish o'rni yaratish vazifasi yuklatildi. Misol uchun ushbu dasturga asosan kredit olgan tadbirkor kamida 1 ta qo'shimcha ish o'rni yaratishi zarur edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.09.2024 yildagi 312-sonli qarori(PQ-312) kichik biznesni moliyaviy qo'llab quvvatlash maqsadida qabul qilingan qarorlardan biri. Ushbu qarorga asosan kichik tadbirkorlarga 300 million so'mgacha imtiyozli kredit ajratish belgilangan. 100 million so'mgacha mablag' "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati mablag'i hisobidan garovsiz, qolgan 200 million qismi bankning o'z resursi hisobidan garov bilan ajratilishi belgilandi. 2024-yil 1-noyabrdan boshlab kichik tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan hudud toifasidan kelib chiqqan holda "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tomonidan mikrokredit beruvchilarga quyidagi stavkalarda qayta moliyalashtiriladi:

5-toifa uchun — 12,5 foiz;

4-toifa uchun — 13,5 foiz;

3-toifa uchun — 14,5 foiz;

2-toifa uchun — 17,0 foiz;

1-toifa uchun — 18,0 foiz;

Tijorat banklari esa ajratilgan resursga +4% ustama haqqi qo'ygan holda tadbirkorlarga ushbu dastur asosida imtiyozli kreditlarni ajratadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan bir qancha davlat dasturlarini amalga oshirgan holda 2024-yilning o'zida 500 ming aholi, kelgusi yilda esa 1 milliondan oshiq aholini doimiy daromad bilan ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu loyihalar orqali kelajakda ishsizlik ko'rsatkichi ikki barobar kamaytirgan holda aholi turmush darajasini oshirish reja qilingan. Tadbirkorlikka

salohiyati bor aholiga esa tadbirkorlikni boshlashi uchun sharoitlar yaratib berilmoqda. Yirik tadbirkorlarga esa imtiyozli kreditlar berish evaziga qo'shimcha ish o'rinlari yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.12.2021 yildagi PQ-55-son.
<https://lex.uz/uz/docs/5785317>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.09.2023 yildagi PQ-306-son.
<https://lex.uz/docs/-6609110>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 09.01.2024 yildagi PQ-7-son.
<https://lex.uz/uz/docs/-6752402>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.09.2024 yildagi PQ-312-son.
<https://lex.uz/uz/docs/-7093832>.